

## MUMTOZ JANRLARNING O'RGANILISH TARIXI

**Bozorova Dilnur Ravub qizi,**

O'zbekiston Milliy Universiteti magistri

E-mail: [bozorovadilnur@gmail.com](mailto:bozorovadilnur@gmail.com)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada o'zbek adabiyotshunosligida mumtoz janrlarning o'rganilish tarixi va tadrijiy takomili masalalari tahlil qilingan. Tadqiqotda Shayx Ahmad Taroziyning "Funun ul-balog'a", Alisher Navoiyning "Mezon ul-avzon", Husayniyning "Badoyi' us-sanoyi" kabi fundamental asarlaridagi janrlar tasnifi ko'rib chiqiladi. Shuningdek, XX asr adabiyotshunosligida Abdurauf Fitrat va Izzat Sultonning mumtoz janrlarni tizimlashtirish hamda ularning nazariy asoslarini yaratishdagi xizmatlari yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** mumtoz janr, adabiyotshunoslik, "Funun ul-balog'a", "Mezon ul-avzon", g'azal, qasida, ruboiy, poetika, nazariy taraqqiyot, Izzat Sulton.

**Аннотация.** В данной статье анализируется история изучения и эволюция классических жанров в узбекском литературоведении. В исследовании рассматривается классификация жанров в таких фундаментальных трудах, как «Фунун уль-балага» Шейха Ахмада Тарази, «Мезон уль-авзон» Алишера Навои и «Бадаиу ус-санайи» Хусайни. Также освещается вклад литературоведов XX века, в частности Абдурауфа Фитрата и Иzzата Султана, в систематизацию классических жанров и разработку их теоретических основ.

**Ключевые слова:** классический жанр, литературоведение, «Фунун уль-балага», «Мезон уль-авзон», газель, касыда, рубайи, поэтика, теоретическое развитие, Иzzат Султан.

**Abstract.** This article analyzes the history of studying classical genres in Uzbek literary studies and the issues of their gradual development. The research examines the classification of genres presented in fundamental works such as "Funun ul-balog'a" by Shaykh Ahmad Taroziy, "Mezon ul-avzon" by Alisher Navoi, and "Badoyi' us-sanoyi" by Husayniy. In addition, the article highlights the contributions of Abdurauf Fitrat and Izzat Sulton in the twentieth-century literary scholarship, particularly their efforts in systematizing classical genres and establishing their theoretical foundations.

**Keywords:** classical genre, literary studies, Funun ul-balog'a, Mezon ul-avzon, ghazal, qasida, rubai, poetics, theoretical development, Izzat Sulton.

**Kirish.** Ma'lumki, mumtoz janrlar badiiy ijodning eng muhim yo'nalishlaridan biridir. O'zbek adabiyotining boyliklarini yuzaga chiqarish, ularni tadqiq qilish sohasida katta yutuqlarga erishilgan. Adabiyotshunosligimizda mumtoz janrlarning o'rganilish tarixi bilan bog'liq masalalarni atroflicha yoritishga yetarlicha imkoniyatlar mavjud. Shu imkoniyatlar asosida har qanday adabiy janrlar murakkab tadrijiy takomil yo'lini bosib o'tganini ko'rishimiz mumkin. Bu tadrijiy takomil natijasi adabiy janrlarning umumiy ahvoli, taraqqiyot bosqichlari hamda yangilanish darajasini ham o'zida aks ettiradi. Shu fikrlardan kelib chiqib mumtoz adabiyotimizdagi poetik tur va janrlar taraqqiyotiga nazar tashlasak, tarixiy rivojlanishning har bir davrida yangi mavzular, yangi g'oyalar, yangi obrazlarning paydo bo'lganini, bularning zamirida adabiy tur va janrlar ham yangi xususiyatlar bilan boyib borganligiga guvoh bo'lamiz.

**Adabiyotlar tahlili.** Maqolada mumtoz janrlar nazariyasining shakllanishiga oid quyidagi fundamental manbalar tahlil qilingan: Shayx Ahmad Taroziyning "Funun ul-balog'a" asari: XV asr o'zbek adabiyotida qo'llanilgan 10 xil she'riy janrga ilmiy ta'rif bergan ilk mukammal qo'llanma hisoblanadi. Alisher Navoiyning "Mezon ul-avzon" asari:

1492-1493-yillarda yozilgan bo‘lib, turkiy tildagi aruz vazni va milliy poetik shakllar haqida ma‘lumot beradi. Abdurauf Fitratning “Adabiyot qoidalari” asari: XX asrda mumtoz nazariyalarga asoslanib yaratilgan, bugungi kundagi adabiyotshunoslikning asosi hisoblangan qo‘llanma. Izzat Sultonning “Adabiyot nazariyasi” darsligi: Mumtoz janrlarni bayt asosida, zamonaviy va tizimli tahlil qilgan keng qamrovli asar.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ushbu maqolada qiyosiy-tarixiy tahlil metodidan foydalanilgan. Tadqiqotda XV asr (Taroziy, Navoiy) va XX asr (Fitrat, Izzat Sulton) adabiyotshunosligi o‘rtasidagi vorisiylik hamda janrlar tavsifidagi o‘ziga xosliklar solishtirilgan. Xususan, mumtoz janrlarning bayt tuzilishi, qofiya tizimi va mavzu ko‘lami bo‘yicha turli olimlarning qarashlari tahliliy o‘rganilgan.

**Tahlil va natijalar.** O‘zbek tilida yozilgan va Sharq she‘riyati nazariyasining janr, qofiya, radif, aruz vazni, she‘riy san‘atlar va she‘rning osha vaqtda keng tarqalgan turi muammo va uning qoidalari masalalarini ilmiy yoritib, izohlab berishga bag‘ishlangan Shayx Ahmad Taroziyning “Funun ul-balog‘a” asaridir. Ahmad Taroziydan oldin yashagan adabiyotshunos olimlar adabiyot nazariyasi bo‘yicha asar yozganlarida ko‘pincha yo she‘r turlari, yoki vazn, yoki badiiy san‘at masalalariga to‘xtalganlar yoki biror she‘riy janr xususiyatlarini izohlab bergan. Taroziy esa adabiyotshunoslik sohasida mukammal bir qo‘llanma yaratgan, ya‘ni o‘z risolasida nazariy masalalarning barchasini yoritib, tahlil qilib bergan.

“Funun ul-balog‘a” (“Yetuklik ilmlari”) asari kirishdan tashqari 5 qismdan iborat. Birinchi qism Sharq she‘riyatida, xususan, XV asr o‘zbek adabiyotida foydalanilgan she‘riy janrlar (she‘r turlari) ning ilmiy ta‘rifiga bag‘ishlangan. Olim o‘z zamondoshlarining ijodiy tajribasidan kelib chiqib she‘riy shanrlarning 10 turini tan oladi va shu o‘n turni ta‘riflaydi hamda ularni misollar bilan izohlaydi. Bu haqda olimning o‘zi quyidagi fikrni bildiradi: “Билгилким, мажмуи шуаро истилоҳинда шеърнинг аксоми (қисмлари), ул ким муътабардур, ўн навъ келибдур: қасида, ғазал, қитъа, рубоий, маснавий, таржеъ, мусаммат, мустазод, мутаввал, фард”. [ 1.43] “Funun ul- balog‘a” o‘zbek tilidagi adabiyotning nazariy masalari bo‘yicha ilk mukammal qo‘llanma hisoblanadi. Unda adabiy qoidalarga dalil sifatida o‘zbek shoirlari bilan bir qatorda, juda ko‘p fors- tojik, ozarbayjon shoirlari ijodidan ham yuzlab she‘riy namunalar, parchalar keltiriladi. Shayx Ahmad fors-tojik shoirlari ijodini yaxshi bilganligi uchun fors-tojik shoirlarining eng mukammal qo‘lyozma nusxalaridan foydalangan.

“Funun ul- balog‘a” asarida birinchi janr sifatida qasida keladi. Ahmad Taroziy qasida haqida fikr bildirarkan, eng kamida 27 baytdan iborat bo‘lishi, lekin ba‘zida undan ko‘p yoki kam ham bo‘lishi mumkinligini, Baytlardagi qofiya qancha ko‘p bo‘lsa shuncha yaxshi bo‘lishini, har qanday maqsadga xizmat qilishi va asosan bayon qilish uchun qo‘llanilishini ta‘kidlaydi hamda qasida janriga milollar keltiradi.

Qit‘a haqida esa birinchi misrasida qofiya bo‘lmaydi, kamida ikki bayt bo‘ladi. Qofiyalari bir necha marotaba takrorlanishi ham mumkin deyiladi. Olim asarida Tarje‘

janri haqida ham ma'lumot bergan. Unga ko'ra, tarje'- bandlarining barchasi bir bahrda yozilgan, Bandlarning eng kami 5 bayt va eng ko'pi 9 bayt hamda har bir baytning oxirida o'zga bir bayt takror qilinadi. "Funun ul- balog'a" asarining nashrga tayyorlanish jarayoni ancha qiyin kechgan. Chunki qo'lyozmaning ayrim joylariga shukast yetgan yoki o'chib ketgan. Shu bilan birga ba'zi so'z va iboralarni o'qib bo'lmaydigan darajada ko'chgan. Qo'lyozmani o'qish va nashrga tayyorlashda Izzat Sulton, Alibek Rustamov, Ergash Umarov, To'ra Mirzayev, Yoqubjon Is'hoqov, Umar To'ychiyev, Muhammadjon Abdullayev va Alimulla Habibullayev katta xizmat ko'rsatgan.

Alisher Navoiy va o'sha davr olimlarining e'tiboriga tushgan "Badoyi' us-sanoyi" asari bilan Husayniy Sharq mumtoz poetikasi rivojiga ulkan hissa qo'shdi. "Asar debocha, muqaddima, 3 san'at turi va xotimadan iborat: debocha kitobning yozilish sababi, muqaddima aruz vazni va zihoflari xususida bo'lib, 1-bobda 60 ta lafziy san'at, 2-bobda 63 ta ma'naviy san'at, 3-bobda 23 ta lafziy ma'naviy san'at to'g'risida ma'lumot berilgan." [2.32] Asar xotimasi 2 qismdan iborat bo'lib, birinchi qismida she'rning ma'no bilan bog'liq tomonlari haqida ma'lumot berilgan. Ikkinchi bobda esa o'n beshta atamaga izoh berilgan. Husayniyning bu asari oldingi adabiyotshunoslar kitobidan farqli tarafi shundaki, olim san'atlarni lafziy, ma'naviy va lafziy ma'naviyga ajratgan. Husayniy badiiy san'atlarga misol qilib 50 ga yaqin shoirlar ijodidan namunalar keltirgan, o'z ijodidan esa taxminan 1400 misra yozgan. "Badoyi' us-sanoyi" asarida 147 ta san'at berilgan, bundan 32 tasini Husayniyning o'zi yaratgan. Bu asarni o'zbek tiliga Alibek Rustamov mukammal tarjima qilgan hamda o'zining sharh va izohlari bilan nashr qildirgan.

Mumtoz janrlar nazaryasini o'rganishdagi yana bir muhim asar bu Alisher Navoiyning "Mezon ul- avzon" dir. Bu asar 1492-1493- yillarda yozilgan. Navoiy bu asarni yozishda Ahmad Taroziyning "Funun ul-balog'a" asari haqida ma'lumotga ega bo'lmaydi, shuning uchun o'z asarini adabiyot nazariyasiga oid turkiy tilda yozilgan ilk asar ekanligini ta'kidlaydi: "G'araz bu maqolotdin va maqsud bu muqaddimotdin bu erdikim, chun turk alfozi bilakim nazm voqi' bo'lubdur, anga zobitae va qonune yo'q erkondur va ul fan rivoji uchun kishi aruz fannida kitobe yo risolae bitmaydur." [2.36]

"Mezon ul- avzon" muqaddimma, asosiy qism hamda kichik xotimalardan iborat. Bu asarda 9 ta poetik shakl va ularning vaznlari haqida ma'lumot keltiriladi. Poetik shakllarning aksariyati turkiy xalq og'zaki ijodiga tegishli. Navoiy ularning xalq orasida tarqalgan nomlaridan foydalanib, nomi yo'qlarini aruzning qaysi bir vazniga mos kelsa, shu vazn nomi bilan atagan. Ushbu 9 ta poetik shakllar quyidagilar: o'n olti ruknli ramali maxbun, tuyuq, qo'shiq, chinga, muhabbatnoma, mustazod, aruzvoriy, turkiy. Shuningdek, "Mezon ul-avzon" da arabiy, forsiy va turkiy tillardagi she'riyatda qo'llanilgan ramal, rajaz, hazaj, muzore', munsareh, muqtazab, sare', jaded, qarib, xafif, mutaqorib, mushokil, mutadorik, madid, tavil, vofir, madid, basit kabi 19 ta bahr haqida ma'lumot keltiriladi va bu bahrlar o'zbek tilidagi misollar bilan dalillanadi.

“Mezon ul-avzon” asarida mumtoz janrlardan “chinga” nomli bir janr haqida ma’lumot beradi. Chinga – turkiy xalqlarning to‘ylarida, ya’ni kelin olish va qiz uzatish marosimlarida aytiladi. Chinga ikki xil bo‘ladi. Birinchi turi hech qanday vaznga to‘g‘ri kelmaydi. Ikkinchi turi esa bir bayt munsarih matviy mavquf bahrida bo‘ladi va yor-yor sozi radif vazifasida keladi. Asarda turkiy xalqlar adabiyotida uchraydigan yana bir janr muhabbatnoma haqida ham batafsil ma’lumot berilgan. Muhabbatnoma – asosan hazaji musaddasi maqsur bahrida yoziladi. Bundan tashqari bu janr quyidagi bahrlarda ham yoziladi: “hazaji musammani axrabi makfufi mahzuf vaznida anga bayt boshlab bitib, aning misraidin so‘ngra hamul bahrning ikki rukni bila ado qilib, surud nag‘amotig‘a rost keltururlar ermish va ani «mustazod” derlar ermish” [2.37], “Яна Ирок аҳли тарокимасида сурудедур шойиъким, ани «арузворий» дерлар ва анинг байти кўпрак хазажи мусаммани солимдадур”. [2.37] Alisher Navoiy yuqoridagi bahrlarning xususiyatlarini yoritish bilan bir qatorda ulardan qaysilari arab she’riyatiga xosligini, qaysilari esa Ajam va turkiy she’riyatda ishlatilganini aniqlagan. Shu bilan birga o‘z zamondoshlari tomonidan qo‘shilgan yangi bahrlar haqida ham o‘z fikrlarini bayon etgan. XX asrda Shayx Ahmad Taroziy va Navoiyning adabiyotshunoslikka oid ilmiy-nazariy qarshlariga asoslangan asar yozildi. Bu Abdurauf Fitratning “Adabiyot qoidalari” asaridir. Bu asar bugungi kunda ham adabiyotshunoslik nazariyasining asosi hisoblanadi. Asarning “Lirik tur janrlarining mazmun va shakl jihatidan tasnifi”da lirik janrlardan 10 tasi haqida ma’lumot keltiriladi. Bular: g‘azal, qasida, qit‘a, masnaviy, ruboyi, mustazod, musammat, tarji‘band, tarkibbanddir. Fitrat bu janrlarning izohini keltiradi va unga o‘zigacha bo‘lgan shoirlar qalamiga mansub misollar bilan dalillaydi. “Fitrat lirik janrlar tahlilida Navoiy asarlariga ko‘p bora murojaat qiladi. Xususan, ruboiy janri haqida to‘xtalganda, Navoiyning ruboiy hazaj bahrining 24 vaznida yoziladi degan fikriga o‘z munosabatini bildiradi.” [3. 26] Fitrat “Adabiyot qoidalari” asarining “Lirik tur janrlarining mazmun va shakl jihatidan tasnifi” bobidagi “Fors-arab aruzida tizim shakllari” faslida g‘azal janri haqida ma’lumot keltiradi. Unga ko‘ra, g‘azal – birinchi baytidagi misralar o‘zaro qofiyadosh, undan keying baytlarning oxirgi misrasi birinchi baytdagi misralar qofiyasi bilan bir xil bo‘lgan, 12 baytdan ortiq bo‘lmagan she’riy tizim.

Musammat haqida esa, “Uzun bir tizmani to‘rtlik, beshlik, oltilik parchalariga ajratadilar. Birinchi parchasining hamma misra'lari qofiyadosh bo‘ladir. Qolg‘an parchalarining so‘ng misra’la-ri ayri-ayri qofiyadosh bo‘lub, so‘ng misralar esa birinchi parchaning qofiyasig‘a boylanadir.” [4.41] Musammatlarning bir necha turlari bor: 1) murabba’ (to‘rtlik), 2) muxammas (beshlik), 3) musaddas (oltilik) ... Fitrat mumtoz adabiyot vakillaridan Navoiy, Lutfiy, Husayniy, Komil Xorazmiy va Amiriy kabi shoirlar ijodida muxammaslarning barcha turlari uchrashini dalillab bergan.

Ruboiy-to‘rt misradan iborat bo‘ladi. 1-,2-,4-misrasi o‘zaro qofiyadosh 3-misrasi qofiyasiz bo‘lgan she’riy tizim. Bu janr bizga forslardan kelgan. Ruboiylar maxsus vaznda yoziladi: “Arab-fors aruzini chig‘atoychada yozg‘an Navoiy ruboiy uchun “hazaj”

bahridan yigirma to‘rt vazn borligini so‘ylaydir. Biroq bu yigirma to‘rt vazn bir- biriga shuncha yoqindir kim, Navoyining o‘zi ham, misollarini ko‘rsatganda aralashtirib yuboradir.”[5.39]

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Fitrat badiiy adabiyot, uning shakllari, adabiy tur hamda janrlar masalasiga jiddiy e‘tibor qaratgan. Badiiy asarlarni tahlil qilishda ularning janriy imkoniyatlarini inobatga olgan va shu orqali janriy o‘zgarishlar ko‘rsatib bergan.

Abdurauf Fitratdan so‘ng uning shogirdi Izzat Sulton adabiyotshunoslik nazariyasiga oid bir qator tadqiqotlar olib borgan va ko‘plab kitob hamda monografiyalar nashr ettirgan. Izzat Sulton (1910-2001) – o‘zbek adabiyotshunos olimi, tanqidchisi va dramaturgidir. Uning “Adabiyot nazariyasi” darsligi o‘zbek adabiyotida muhim o‘rin tutadi. U adabiyot nazariyasining asoslarini taraqqiy etishida va yangi avlod adabiyotshunoslarini tayyorlashdagi o‘rni beqiyos. Darsligidan uzoq yillar mobaynida O‘zbekiston va O‘rta Osiyodagi boshqa davlatlar adabiyotshunoslik nazariyasi bo‘yicha asosiy qo‘llanma sifatida foydalangan. Bu darslik 1939-yilda nashr qilingan. Birinchi nashri o‘rta maktablar uchun mo‘ljallangan edi. Keyinchalik esa 1978-1979-yillarda “Adabiyot nazariyasi” kitobining 2 jildlik kengaytirilgan, to‘ldirilgan va qayta ishlangan nashrini yaratadi. Bu darslik oliy o‘quv yurtlari uchun mo‘ljallangan bo‘lib, adabiyotshunoslik qoidalari keng yoritilgan, chuqur tahlil qilingan va zamonaviy yondashuvlarni o‘z ichiga oladi.

“Adabiyot nazariyasi” kitobi yetti bobdan iborat bo‘lib, beshinchi bobi “Adabiy tur va janrlar” deb nomlanadi. Dissertatsiyamizning obykti sifatida olingan mumtoz janrlar haqida ham shu bobda ma‘lumot keltirilgan. Bobdagi “Lirikaning asosiy janrlari” faslida misra, bayt va abyot so‘zlarining izohi berilgan. Olim mumtoz janrlar haqida ma‘lumot berishda ularning baytga asoslanishini tayanch qilib oladi. Mumtoz janrlardan g‘azal, qasida, masnaviy, ruboiy haqida izohlar berilgan. Ulardan ba‘zilarining izohlari bilan tanishamiz.

Izzat Sulton g‘azal janrini quydagicha izohlaydi.: “G‘azalning mavzu doirasi cheklangan, u ishq haqidagi asar”, degan fikr keng tarqalgan. Bu noto‘g‘ridir. G‘azal kishiga xos hamma hislar doirasini qamrab oladi; unda hatto sevgi mavzusi asos bo‘lgan taqdirda ham umumaxloqiy va falsafiy fikrlar izhor etilishi mumkin.”[6.170] Fikrimizning dalili sifatida Fitratning

*Ko‘zum yoshin bilmas to tyran qo‘ymas elni g‘amga,*

*Qalam qo‘limda – bir siloh, dedim, haqqa yetgayman.*

Bu misrada zulm va jaholatga qarshi kurashish, ma‘rifat orqali ozodlikka erishish g‘oyasi ifodalanadi.

Qasida – mumtoz adabiyotda eng ko‘p uchraydigan janrlardan biridir. Olimning o‘zi qasidaga quydagi ta‘rifni beradi. “Qasida muhim tarixiy voqealarning, lirik shaxslar faoliyatining mohiyatiga baho berish uchun yoziladi, shoirning mamlakat va xalq haqidagi

fikrlarini ifoda etadi.”[6.130] Alisher Navoiyning “Hiloliya” qasidasi mumtoz adabiyotdagi qasida janrining eng go‘zal namunasidir.

Lirik turlarning yana bir keng tarqalgan turi bu – masnaviydir. Masnaviy mavzu ko‘lami bilan qasidaga yaqin turadi. “Masnaviy” aslida “ikkilik” demakdir: u qofiyalangan baytlardan iborat bo‘lgani uchun shunday nom olgan. Masnaviyda shoir o‘z ahvoli va dunyoning ishlaridan hikoya qiladi.[6.130]

Xulosa qilib aytganda, Izzat Sulton bu kitobni yozishda o‘zidan avvalgi adabiyotshunos olimlarning fikrlarini chuqur o‘rgangan. U mumtoz janrlarni qisqa, lo‘nda va kitobxon tushunadigan tarzda izohlaydi. Har bir janrni dalillar bilan boyitadi.

**Xulosa.** O‘zbek adabiyotshunosligida mumtoz janrlarning o‘rganilishi uzoq va boy tarixiy tadrijga ega bo‘lib, u oddiy tavsiflardan mukammal nazariy tizimlargacha bo‘lgan yo‘lni bosib o‘tgan. Shayx Ahmad Taroziyning “Funun ul-balog‘a” asari XV asrdayoq o‘zbek tilida yozilgan ilk mukammal nazariy qo‘llanma sifatida janrlarni ilmiy jihatdan ta‘riflab bergan bo‘lsa, Alisher Navoiy "Mezon ul-avzon" asari orqali turkiy she‘riyatning o‘ziga xos poetik shakllari va vaznlar tizimini (chinga, tuyuq, muhabbatnoma kabi) yanada boyitdi. XX asrga kelib Abdurauf Fitrat va Izzat Sulton kabi olimlar ushbu an‘analarni davom ettirgan holda, mumtoz janrlarni zamonaviy adabiyotshunoslik talablari asosida tizimlashtirdilar. Fitrat janrlarni mazmun va shakl jihatidan tasniflashda Navoiy an‘analariga tayangan bo‘lsa, Izzat Sulton o‘zining "Adabiyot nazariyasi" darsligida mumtoz janrlarning (g‘azal, qasida, masnaviy) mavzu ko‘lami faqat ishq bilan cheklanmasligini, balki ijtimoiy-falsafiy va axloqiy g‘oyalarni ham qamrab olishini ilmiy asoslab berdi. Umuman olganda, mumtoz janrlar nazariyasining rivojlanishi o‘zbek badiiy tafakkurining o‘sish darajasini va milliy adabiyotimizning jahon adabiy jarayonidagi o‘rnini belgilovchi muhim omildir. Ushbu tadrijiy takomilni o‘rganish bugungi kun adabiyotshunosligi uchun ham poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ahmad Taroziy “Funun ul-balog‘a” – Toshkent: Fan nashriyoti, 1996.
2. Alisher Navoiy. Mezon ul-avzon. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1967.
3. Orzugul Hamroyeva. Fitratning adabiyotshunoslikka oid qarashlari Monografiya “Bookmany print” nashriyoti, 2023.
4. Abdurauf Fitrat. Tanalangan asarlar – “Ma‘naviyat” 2009.
5. Орзибеков Р. Лирикада кичик жанрлар. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1976. – 168 б.
6. Izzat Sulton Adabiyot nazariyasi. - O‘qituvchi 2005.